



**Ilmiy amaliy  
jurnal  
№ 4 (6)  
2026**

**YANGI  
O'ZBEKISTON  
IQTISODIYOTI**

**“YANGI O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTI” *jurnali* 4-son 2026 yil**

---

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI  
O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI**

**YANGI O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTI**

**4**

**ISBN 978-9943-5256-3-4**

**Toshkent – 2026**

**MUNDARIJA**

|                                                                                                                                                              |            |
|--------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|------------|
| <b>Юлдашев Ш.Г.</b> Конвергенция и поляризация развитых и развивающихся стран в эпоху развития искусственного интеллекта.....                                | <b>8</b>   |
| <b>Mamatov B.S.</b> Foreign investment is an important factor of economic growth.....                                                                        | <b>15</b>  |
| <b>Raximova K.N.</b> Raqamli iqtisodiyot sharoitida telekommunikatsiya kompaniyasining rivojlanish tendensiyasi.....                                         | <b>22</b>  |
| <b>Karimov Sh.X.</b> Turizmni barqaror rivojlantirishda hududiy boshqaruv omillarining ahamiyati.....                                                        | <b>26</b>  |
| <b>Raximov D.Sh.</b> To‘qimachilik sanoatida diversifikatsiya darajasi va iqtisodiy samaradorlik ko‘rsatkichlari tahlili.....                                | <b>30</b>  |
| <b>Rashidova K.</b> Asalarichilik mahsulotlari bozorida marketing faoliyati samaradorligini oshirish.....                                                    | <b>32</b>  |
| <b>Хакимов Д.Р.</b> Процессы, возможности и ограничения экономической интеграции между Республикой Узбекистан и Китайской Народной Республикой.....          | <b>37</b>  |
| <b>Olimjanova Sh.O., Eshonqulov I.N.</b> O‘zbekistonda agrar munosabatlarni takomillashtirishda resurs tejankor texnologiyalarni joriy etish masalalari..... | <b>42</b>  |
| <b>Valikulov Sh.Z.</b> O‘zbekistonda neft-gaz sanoatiga investitsiyalarni jalb qilishning institutsional muammolari va yechimlari.....                       | <b>48</b>  |
| <b>Ganieva L.S.</b> Bojxona xizmatlari samaradorligini oshirishning nazariy asoslari.....                                                                    | <b>52</b>  |
| <b>Axrorova N.U.</b> Turizm xizmatlaridan tajriba iqtisodiyotiga o‘tish: evolyutsion tahlil.....                                                             | <b>56</b>  |
| <b>Kamilova A.N.</b> Sanoat ishlab chiqarish korxonasida mehnatni normalashtirish menejmentini tashkil etish va takomillashtirish yo‘llari.....              | <b>61</b>  |
| <b>Umurzakova Z.S.</b> Sanoat korxonalarida ishlab chiqarish quvvatlaridan foydalanishni takomillashtirish chora-tadbirlari.....                             | <b>66</b>  |
| <b>Abdiyeva D.K.</b> Priority directions for improving the national logistics policy in Uzbekistan.....                                                      | <b>69</b>  |
| <b>Xalimova N.J.</b> Kreativ turizm: nazariy asoslar va ta’riflar qiyosiy tahlili.....                                                                       | <b>74</b>  |
| <b>Maxramova N.Y.</b> Strategik menejmentda qadriyatlar zanjiri: raqobatbardoshlikni oshirishning konseptual asoslari.....                                   | <b>78</b>  |
| <b>Zaxirova G., Shavkatova N.O’.</b> O‘zbekistonda turizmni rivojlantirish masalalari.....                                                                   | <b>82</b>  |
| <b>Maxmudov H., Muxtarova G., Maxmudov H.</b> Ekologik muommolar va ularning mamlakat iqtisodiyotga ta’siri.....                                             | <b>86</b>  |
| <b>Umurzakova M.N., Gulahmadov Sh.A.</b> Davlat ichki va tashqi qarzlarning ijobiy va salbiy jihatlar tahlili.....                                           | <b>89</b>  |
| <b>Xasanov I.M.</b> O‘zbekistonda mulkchilik munosabatlarining transformatsiyasi: tadbirkorlikni rivojlantirish omili sifatida.....                          | <b>94</b>  |
| <b>Abdullayev M.G’.</b> Personalni boshqarish tizimining ilmiy-nazariy asoslari va uning korxona samaradorligiga ta’siri.....                                | <b>101</b> |
| <b>Адилов Б.Б., Абдуллаева М.К.</b> Ўзбекистонда саноат корхоналарини ривожлантириш, тенденциялари.....                                                      | <b>105</b> |
| <b>Абдуғаниев Ё.Ж.</b> Яшил иқтисодиёт - барқарор ривожланиш мақсадларининг янги парадигмаси сифатида.....                                                   | <b>112</b> |
| <b>Xusanboyeva T.M.</b> Talabalarning iqtisodiy tafakkurini shakllantirishda to‘garaklarning o‘rni va ahamiyati.....                                         | <b>116</b> |
| <b>Xashimova S.N.</b> O‘zbekiston milliy yashil taksonomiyasi mohiyati va ahamiyati.....                                                                     | <b>120</b> |
| <b>Mitillayev I.T.</b> Tijorat banklarida kredit risklarini baholashda zamonaviy scoring modellari va ularning samaradorligini oshirish yo‘llari.....        | <b>124</b> |
| <b>Бобоқулова М.Ғ.</b> Инвестиция муҳити ва Ўзбекистондаги инвестиция жараёнларининг динамикаси.....                                                         | <b>127</b> |
| <b>Bekberganova M.R.</b> “O‘zbekistonda sug‘urta kompaniyalari tushumlarining ekonometrik tahlili”.....                                                      | <b>134</b> |
| <b>Рахимова М.Ш.</b> Модернизация системы социальной защиты.....                                                                                             | <b>138</b> |
| <b>Oqboyev A.R.</b> Tadbirkorlik subyektlari eksport salohiyatini xalqaro standartlar asosida oshirish yo‘llari....                                          | <b>142</b> |
| <b>Djumanova R.F.</b> Aholi turmush sifatini baholashning metodologik yondoshuvlari.....                                                                     | <b>147</b> |
| <b>Mamatov B.S., Umurzakova M.N.</b> Davlat tibbiy sug‘urta tizimida bepul xizmatlar, reimbursasiya va foydalanish shartlari.....                            | <b>154</b> |
| <b>Ешимбетов У.Х.</b> Қишлоқ хўжалигини ҳудудий ташкил этиш ва иқтисослаштиришнинг илмий асослари.....                                                       | <b>158</b> |
| <b>Xodjaeva F.K.</b> Sanoat ishlab chiqarishini tartibga solishning iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish....                                           | <b>167</b> |
| <b>Yusupova M.</b> Hududlarda ayollar va yoshlar tadbirkorligini rivojlantirishda institutsional qo‘llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish.....          | <b>171</b> |
| <b>Abduxalilov B.Z.</b> O‘zbekistonda IT provayderlar xizmatlari raqobatbardoshligini oshirish: huquqiy va institutsional asoslar.....                       | <b>175</b> |
| <b>Abdisamatov A.A.</b> Tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishning nazariy asoslari.....                                                                    | <b>178</b> |

## **“YANGI O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTI” *jurnali* 4-son 2026 yil**

|                                                                                                                                                                                  |     |
|----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-----|
| <b>Abdusalomov I.J.</b> Korxonalarda chiqindilarni boshqarish tizimini takomillashtirish va uning moliyaviy natijalarga ta'siri.....                                             | 182 |
| <b>Amirov L.F., Sokhibjonova S.S.</b> Directions for increasing agricultural product exports in the context of a green economy.....                                              | 185 |
| <b>Boltaxo'jayeva I.O'.</b> Ways to improve the enterprise management system based on modern management models.....                                                              | 191 |
| <b>Dehqonov U.M., Sativaldiyeva G.</b> Korxonalarda bo'nak to'lovlari hisobining moliyaviy hisobotga ta'siri va ularni optimallashtirish bo'yicha tahliliy yondashuvlar.....     | 195 |
| <b>Isoqova M.A.</b> O'zbekistonda yashil energiyadan foydalangan holda kichik biznesni rivojlantirishning institutsional va moliyaviy mexanizmlari.....                          | 199 |
| <b>Mamadaliyev B., Teshaboyev J.</b> Korxonalarda mehnatga haq to'lash hisobini avtomatlashtirish va audit samaradorligini oshirish yo'llari.....                                | 202 |
| <b>Poziljonov M., Teshaboyev X.</b> Davlat muassasalarida asosiy vositalarning hisobini takomillashtirish va ulardan foydalanish samaradorligini oshirish.....                   | 206 |
| <b>Rustamova F.A.</b> Qishloq hududlarida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatining iqtisodiy samaradorligini oshirishda innovatsion yondashuvlarning roli.....        | 209 |
| <b>Tursunboyev Q.O.</b> Transport xizmatlari ko'rsatish sohasida kichik tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishning xorijiy tajribalari.....                                     | 213 |
| <b>Umarov T.S.</b> Hududlarda qurilish korxonalarini faoliyatini samarali tashkil etishni ekonometrik modellash va prognozlash.....                                              | 216 |
| <b>Xo'jaliyev A.O., Avilov N.</b> Moliyaviy natijalar hisobi va auditda raqamli texnologiyalardan foydalanish samaradorligi.....                                                 | 220 |
| <b>Xomidov T.T., Arziboyeva R.S.</b> Bank aktivlarining tarkibi va ularni boshqarish omillari.....                                                                               | 223 |
| <b>Xusainov M.</b> Sanoat korxonalarida mahsulot tannaxsini kalkulyatsiya qilish tizimini takomillashtirishning metodologik asoslari va audit mexanizmlarini rivojlantirish..... | 227 |
| <b>Begaliyeva M.A., Egamshukurova N.R.</b> Jahon savdo tizimi va milliy iqtisodiyot uchun uning ahamiyati..                                                                      | 231 |
| <b>Gulimboyev S.I.</b> Korxonalarda moliyaviy resurslar taqsimotining zamonaviy usullari.....                                                                                    | 235 |
| <b>Ibodov J.Q.</b> Moliyaviy tizimning xizmatlar sohalari va bo'g'inlari.....                                                                                                    | 239 |
| <b>Jumabayeva K.B.</b> Xalqaro pensiya tizimi modellari va ularning mintaqaviy tamoyillari.....                                                                                  | 243 |
| <b>Khusanova Z.R., Yo'ldasheva Z.U.</b> Global trends in the development of international tourism services....                                                                   | 249 |
| <b>Sadullayev M.D.</b> Sanoat korxonalari innovatsion faoliyatini boshqarish.....                                                                                                | 252 |
| <b>Tilabov N.T.</b> Davlat qarz siyosatini samarali boshqarish strategiyasini takomillashtirish.....                                                                             | 256 |
| <b>Toshtemirov Y.N.</b> O'zbekistonda logistik faoliyatni rivojlantirishning hozirgi darajasi.....                                                                               | 264 |
| <b>Toshtemirova Z.M.</b> Mahalla institutining iqtisodiy integratsiya jarayonlaridagi strategik ahamiyati.....                                                                   | 268 |
| <b>Uralov E.O.</b> Surxondaryo viloyati xududida sanoatni shakllanishi va rivojlanishi.....                                                                                      | 273 |
| <b>Xursanova F.Sh.</b> Budjetlararo munosabatlarning iqtisodiy mazmuni.....                                                                                                      | 278 |
| <b>Yuldasheva G.A.</b> Investitsion qarorlarni kabul qilishda moliyaviy tahlilning ahamiyati va roli .....                                                                       | 282 |
| <b>Абдуллаева Р.</b> Тadbirkorlikning zamonaviy kuryentlari.....                                                                                                                 | 287 |
| <b>Юлдашев А.</b> Фаргона вилояти маҳаллаларида инвестиция фаоллигини оширишнинг институционал асослари .....                                                                    | 292 |
| <b>Abdumalikova Z., Razakova B.S.</b> O'zbekiston sug'urta bozorini moliyaviy texnologiyalar (insurtech) asosida rivojlantirish: imkoniyatlar va yo'nalishlar.....               | 294 |
| <b>Azimov B.F.</b> Milliy innovatsion tizimni boshqarishda tashkiliy-institutsional va moliyaviy-iqtisodiy mexanizmlarning roli.....                                             | 300 |
| <b>Begaliyeva M.A.</b> Raqamli iqtisodiyot sharoitida oliy ta'lim tizimida sifat menejmentini samarali joriy etishning ahamiyati.....                                            | 304 |
| <b>Dawletmuratov A.M.</b> Xizmatlar bozorini rivojlantirish orqali bandlikni oshirish va daromadlarni ko'paytirish mexanizmlari.....                                             | 308 |
| <b>Karimova L.S., Jabborov A.A.</b> O'zbekistonda raqamli iqtisodiyot: holati, muammolar va rivojlanish istiqbollari.....                                                        | 313 |
| <b>Maxmudov F.U.</b> Oliy ta'lim muassasalarida moslashuvchan marketing strategiyalarini ishlab chiqish mexanizmlari.....                                                        | 319 |
| <b>Navruz-zoda L.B.</b> Kichik biznes subyektlarining kadrlar salohiyati va bilim infratuzilmasiga bo'lgan talablari: Buxoro viloyati misolida.....                              | 323 |
| <b>Nishonboyev D.E., Abdumalikov S.T.</b> Chorvachilik tarmog'ini innovatsion boshqaruv asosida rivojlantirish istiqbollari.....                                                 | 327 |

## **“YANGI O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTI” jurnali 4-son 2026 yil**

|                                                                                                                                                                                        |            |
|----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|------------|
| <b>Nurmirezayeva N.R.</b> Valyuta kursi o‘zgarishining eksport-importga ta’siri: O‘zbekiston misolida amaliy baholash.....                                                             | <b>331</b> |
| <b>Rahimov A.M.</b> Hududiy iqtisodiyotni rivojlantirishda qayta ishlash sanoatini rivojlantirishning samarali mexanizmlarini takomillashtirish.....                                   | <b>335</b> |
| <b>Ibragimova G.S.</b> Ta’lim sifatini baholashning xalqaro tajribasi va uni joriy etish.....                                                                                          | <b>339</b> |
| <b>Ravshanova M.M.</b> Hududiy iqtisodiy salohiyatni baholashda zamonaviy raqamli texnologiyalardan foydalanish va ularning elektron tijorat tizimidagi o‘rni.....                     | <b>343</b> |
| <b>Ro‘ziboyeva M.</b> O‘zbekistonda ishchi kuchi migratsiyasi va iqtisodiy o‘sish darajasining o‘zgarish dinamikasi.....                                                               | <b>347</b> |
| <b>Saidova F.K., O‘rozov Sh.</b> Korporativ ijtimoiy mas’uliyat (CSR) va yashil iqtisodiyot: logistika sektorida boshqaruv strategiyalari.....                                         | <b>350</b> |
| <b>Sultonov S.N.</b> Hududlarda klasterlarini investitsion - innovatsion rivojlantirish istiqbollari (Qashqadaryo viloyati misolida).....                                              | <b>354</b> |
| <b>Sultonova D.U.</b> Korxona iqtisodiyotida resurslarni boshqarishning raqamli-integratsiyalashgan modelini takomillashtirish.....                                                    | <b>358</b> |
| <b>To‘raxojayev H.H., Hoshimov P.Z.</b> Islomiy banklarning ishlash tamoyili va islom moliya tizimining O‘zbekiston iqtisodiyotiga tadbiqu.....                                        | <b>362</b> |
| <b>Tursunova N.U.</b> Bridging the innovation gap: development-focused entrepreneurship support and international intermediaries.....                                                  | <b>368</b> |
| <b>Акрамова Г.А.</b> «Роль женщин-ученых в совершенствовании механизмов коммерциализации ремесленных услуг Узбекистана в условиях цифровой экономики».....                             | <b>374</b> |
| <b>Болтаев Ж.А.</b> Трансформация банковского сектора в условиях цифровизации мировой экономики..                                                                                      | <b>379</b> |
| <b>Жунайдуллаев М.А.</b> Жанубий Кореяда рақамли таълим технологиялари орқали индивидуал спортчиларини тайёрлаш тизимини бошқаришнинг миллий хусусиятлари.....                         | <b>384</b> |
| <b>Митрушова М.Л.</b> Интеллектуальный капитал как ключевой фактор инновационного развития предприятия.....                                                                            | <b>388</b> |
| <b>Муродов О.У.</b> Барқарор ривожланиш тушунчаси ва унинг иқтисодий, ижтимоий ҳамда экологик мезонлари.....                                                                           | <b>392</b> |
| <b>Саидова Г., Ибрагимова К., Қурбонов А.</b> Рақамли трансформация шароитида енгил саноат корхоналари маҳсулотларининг халқаро рақобатбардошлигини ошириш стратегиялари.....          | <b>396</b> |
| <b>Sarkarov S.Z.</b> O‘zbekistonda qurilish sohasining texnologik bisqichlar kesimida rivojlanishi.....                                                                                | <b>401</b> |
| <b>Minojiddinova N.M.</b> Aksiyadorlik jamiyati korxonalarida xodimlarni samarali boshqarishda raqamli texnologiyalardan foydalanish istiqbollari.....                                 | <b>406</b> |
| <b>Ruzmetova I.Y.</b> Xorazm viloyati iqtisodiyotida kichik biznesning o‘rni.....                                                                                                      | <b>410</b> |
| <b>Qudratov D., Ismoilov A.</b> Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning tarmoqlar rivojidadagi o‘rni.....                                                                            | <b>414</b> |
| <b>Qodirov H.D.</b> Soliq ma’muriyatchiligini takomillashtirish orqali davlat byudjeti daromadlarini barqaror oshirish yo‘llari.....                                                   | <b>417</b> |
| <b>Kinjayev K.N.</b> Banklarda kreditlar tasnifini yaxshilash orqali rentabellikni ta’minlash yo‘llari.....                                                                            | <b>421</b> |
| <b>Макушина А.Ю.</b> Государственная поддержка экспортного потенциала субъектов малого предпринимательства в Республике Узбекистан.....                                                | <b>424</b> |
| <b>Rejapov X.X., Oxunjonova K.K.</b> Ixtisoslashtirilgan savdo majmualarini moliyaviy resurslarini shakllantirish va ishlatish yo‘nalishlari – Bek Baraka savdo majmuasi misolida..... | <b>430</b> |
| <b>Махкамова Н.С.</b> Роль государственно-частных партнерств (ГЧП) в продвижении устойчивого развития .....                                                                            | <b>434</b> |
| <b>Avilov N., Muhammadova G.</b> Korxonalarda materiallar harakatining auditi va iqtisodiy tahlili.....                                                                                | <b>441</b> |
| <b>Abdullayeva R.G., Raxmonova I.S.</b> O‘zbekiston qishloq hududlarida bandlikni ta’minlash holati va rivojlanish tendensiyalari.....                                                 | <b>444</b> |
| <b>Yusupova M.B.</b> Ustama ishlab chiqarish xarajatlarini taqsimlashning ABC usuli.....                                                                                               | <b>447</b> |
| <b>Toshpo‘latov M.A.</b> Ta’lim loyihalarida moliyaviy mablag‘lardan samarali foydalanishning xususiyatlari...                                                                         | <b>452</b> |
| <b>Hamidova Sh., Ahmadaliyeva H.</b> Kapital qo‘yilmalarning samaradorlik tahlili.....                                                                                                 | <b>458</b> |
| <b>Хамракулов С.М.</b> Собственный капитал в функционировании экономических субъектов Республики Узбекистан.....                                                                       | <b>461</b> |
| <b>Zayavitdinova N.M.</b> Raqamli platformalar asosida xizmat ko‘rsatish korxonalarida boshqaruv samaradorligini oshirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlari.....                    | <b>465</b> |
| <b>Turg‘unov T.S.</b> O‘zbekistonda aholi turmush darajasini statistik taxlil qilishning ahamiyati.....                                                                                | <b>469</b> |
| <b>Ботирова З.Қ.</b> Рақамли иқтисодиёт шароитида даромадларни бошқаришнинг хусусиятлари....                                                                                           | <b>475</b> |
| <b>Бегимова Н.К.</b> Меҳнат бозорида гендер тафовутларининг келиб чиқиш сабаблари.....                                                                                                 | <b>481</b> |

**TIJORAT BANKLARIDA KREDIT RISKLARINI BAHOLASHDA ZAMONAVIY SCORING MODELLARI VA ULARNING SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO‘LLARI**

**СОВРЕМЕННЫЕ СКОРИНГОВЫЕ МОДЕЛИ ОЦЕНКИ КРЕДИТНЫХ РИСКОВ В КОММЕРЧЕСКИХ БАНКАХ И ПУТИ ПОВЫШЕНИЯ ИХ ЭФФЕКТИВНОСТИ**

**MODERN CREDIT SCORING MODELS IN COMMERCIAL BANKS AND WAYS TO IMPROVE THEIR EFFICIENCY**

**Mitillayev Ibrohimjon Tursunpulatovich**

Qo‘qon universiteti Andijon filiali “Iqtisodiyot va moliya” kafedrası i.f.f.d. (PhD)

ORCID: 0008-0009-6518-8710

**Annotatsiya**

Ushbu ilmiy maqolada tijorat banklarida kredit risklarini baholashda zamonaviy scoring modellari, xususan statistik va sun’iy intellektga asoslangan yondashuvlar tahlil qilinadi. Shuningdek, ushbu modellarning samaradorligini oshirish yo‘llari, ularning afzallik va kamchiliklari, hamda O‘zbekiston bank tizimida joriy etish imkoniyatlari o‘rganiladi. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, zamonaviy scoring modellari kredit risklarini aniqlash aniqligini oshirish bilan birga, banklarning moliyaviy barqarorligini mustahkamlashga xizmat qiladi.

**Kalit so‘zlar:** kredit riski, scoring modeli, risk-menejment, sun’iy intellekt, tijorat banklari, kredit baholash.

В статье анализируются современные скоринговые модели оценки кредитных рисков в коммерческих банках, включая статистические и модели на основе искусственного интеллекта. Рассматриваются пути повышения их эффективности, преимущества и недостатки, а также возможности внедрения в банковской системе Узбекистана. Результаты исследования показывают, что современные модели способствуют повышению точности оценки кредитных рисков и финансовой устойчивости банков.

**Ключевые слова:** кредитный риск, скоринговая модель, риск-менеджмент, искусственный интеллект, коммерческие банки.

This article analyzes modern credit scoring models used in commercial banks, including statistical and artificial intelligence-based approaches. It examines ways to improve their efficiency, advantages, and limitations, as well as their applicability in Uzbekistan’s banking system. The results show that modern scoring models enhance the accuracy of credit risk assessment and contribute to financial stability.

**Keywords:** credit risk, scoring model, risk management, artificial intelligence, commercial banks.

Zamonaviy iqtisodiy sharoitda tijorat banklarining asosiy daromad manbai kredit operatsiyalari hisoblanadi. Shu bilan birga, kreditlash faoliyati banklar uchun eng katta xavf – kredit riskini ham yuzaga keltiradi. Kredit riskini samarali boshqarish bank tizimining barqarorligi va moliyaviy xavfsizligini ta’minlashda muhim omil hisoblanadi.

So‘nggi yillarda bank amaliyotida kredit risklarini baholashning an’anaviy usullaridan zamonaviy, raqamli va avtomatlashtirilgan scoring tizimlariga o‘tish jarayoni kuzatilmoqda. Ayniqsa, katta hajmdagi ma’lumotlarni qayta ishlash imkonini beruvchi sun’iy intellekt va mashinaviy o‘rganish texnologiyalarining rivojlanishi kredit riskini baholash sifatini tubdan o‘zgartirmoqda.

Scoring modellari kredit oluvchining moliyaviy holatini tezkor va aniq baholash imkonini berib, inson omilidan kelib chiqadigan xatoliklarni kamaytiradi. Shu bilan birga, ushbu modellarning samaradorligi ularning to‘g‘ri tanlanishi va bank tizimiga moslashtirilishiga bevosita bog‘liq.

Mazkur maqolaning asosiy maqsadi tijorat banklarida kredit risklarini baholashda zamonaviy scoring modellari mohiyatini o‘rganish, ularning samaradorligini oshirish yo‘llarini aniqlash hamda amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Kredit risklarini baholash nazariyasi va amaliyoti ko‘plab iqtisodchi olimlar tomonidan o‘rganilgan. Xususan, amerikalik olim Edvard Altman o‘zining mashhur Z-score modelida korxonalarning bankrotlik ehtimolini aniqlash orqali kredit riskini baholash mumkinligini ta’kidlagan [1].

Tomas Andersonning “Credit Scoring and Its Applications” asarida kredit scoring tizimlari banklar uchun qaror qabul qilish jarayonini avtomatlashtirishda muhim vosita ekanligi va ularning samaradorligi statistik modellarga asoslanganligi qayd etilgan [2].

Rossiyalik olim S.V. Lavrushin o‘zining bank ishi bo‘yicha ilmiy ishlarida kredit risklarini boshqarishda kompleks yondashuv zarurligini, jumladan, scoring modellari va ekspert baholash tizimlarini birgalikda qo‘llash lozimligini ta’kidlaydi [3].

O‘zbekistonlik iqtisodchi olim B.Yu. Xodiyev tadqiqotlarida bank tizimini modernizatsiya qilish sharoitida risklarni baholashda zamonaviy texnologiyalarni joriy etish muhimligini qayd etadi [4].

Shuningdek, xalqaro tashkilotlar, jumladan, Basel qo‘mitasi tomonidan ishlab chiqilgan standartlarda kredit risklarini baholashda ichki reyting tizimlari (IRB) va scoring modellari asosiy vosita sifatida tavsiya etilgan [5].

Yuqoridagi ilmiy qarashlar shuni ko‘rsatadiki, kredit risklarini baholashda zamonaviy scoring modellari bank tizimi samaradorligini oshirishda muhim rol o‘ynaydi.

Mazkur tadqiqotda tahliliy, statistik va solishtirma usullardan foydalanildi. Kredit risklarini baholashda qo‘llaniladigan scoring modellari o‘rganilib, ularning samaradorligi solishtirildi. Shuningdek, xalqaro tajriba va milliy bank amaliyoti asosida umumlashtirish ishlari olib borildi. Tadqiqot jarayonida iqtisodiy tahlil va ilmiy abstraksiya usullari keng qo‘llanildi. Bundan tashqari, empirik ma’lumotlar asosida modellarni amaliy sinovdan o‘tkazish orqali ularning real iqtisodiy sharoitdagi ishlash samaradorligi ham baholandi.

Zamonaviy tijorat banklarida kredit risklarini baholash jarayoni tobora murakkablashib borayotgan moliyaviy muhit sharoitida strategik ahamiyat kasb etmoqda. Bugungi kunda bank amaliyotida kredit risklarini aniqlash va ularni boshqarish uchun bir nechta scoring modellari keng qo‘llanilib, ular o‘zining metodologik yondashuvi va texnologik asoslariga ko‘ra turli guruhlariga ajratiladi. Ularni shartli ravishda uch asosiy toifaga bo‘lish mumkin: statistik modellarga asoslangan scoring tizimlari (jumladan, logistik regressiya modellari), ekspert tizimlari hamda sun‘iy intellekt (AI) va mashinaviy o‘rganish algoritmlariga asoslangan zamonaviy modellar.

Statistik modellarga asoslangan scoring tizimlari kredit riskini baholashning an’anaviy yondashuvi hisoblanadi. Ushbu modellarda asosan mijozning moliyaviy ko‘rsatkichlari, daromad darajasi, kredit tarixchisi, qarzdorlik yuklamasi kabi omillar matematik-statistik usullar orqali tahlil qilinadi va umumiy risk darajasi aniqlanadi. Biroq, iqtisodiy jarayonlarning murakkablashuvi va mijozlar xulq-atvorining tez o‘zgarishi natijasida ushbu modellarning aniqlik darajasi ma’lum cheklolarga ega bo‘lib qolmoqda. Ayniqsa, ular noaniq va dinamik o‘zgaruvchan omillarni to‘liq hisobga ololmasligi sababli kredit riskini baholashda ba’zi hollarda xatoliklar yuzaga kelishi mumkin.

Ekspert tizimlari esa bank mutaxassislarining tajribasi va subyektiv baholariga asoslanadi. Ushbu yondashuv kredit arizalarini ko‘rib chiqishda muhim ahamiyatga ega bo‘lsa-da, inson omiliga bog‘liqligi sababli bir xillik va standartlashuv darajasi past bo‘lishi mumkin. Shu sababli, faqat ekspert tizimlariga tayanish kredit risklarini to‘liq va obyektiv baholash uchun yetarli emas.

So‘nggi yillarda eng katta rivojlanish sun‘iy intellekt (AI) va mashinaviy o‘rganish modellari sohasida kuzatilmoqda. Ushbu yondashuv kredit risklarini baholashda yangi bosqichni boshlab berdi, chunki AI asosidagi modellarda katta hajmdagi ma’lumotlar (big data), mijozning raqamli izlari, tranzaksiya tarixlari hamda xulq-atvor patternlari chuqur tahlil qilinadi. Natijada yashirin

bog‘liqliklar va murakkab statistik qonuniyatlar aniqlanadi, bu esa kredit riskini baholash aniqligini sezilarli darajada oshiradi hamda qaror qabul qilish jarayonini avtomatlashtiradi.

Quyidagi jadvalda turli scoring modellari asosiy samaradorlik ko‘rsatkichlari bo‘yicha taqqoslangan:

**1-jadval**

**Scoring modellari samaradorligi taqqoslanishi**

| <b>Ko‘rsatkichlar</b>                  | <b>An‘anaviy model</b> | <b>AI asosidagi model</b> |
|----------------------------------------|------------------------|---------------------------|
| Baholash aniqligi                      | O‘rtacha               | Juda yuqori               |
| Qaror qabul qilish tezligi             | O‘rtacha               | Juda tez                  |
| Xatolik ehtimoli                       | Yuqori                 | Past                      |
| Moslashuvchanlik                       | Cheklangan             | Yuqori                    |
| Ma‘lumotlarni qayta ishlash imkoniyati | Cheklangan             | Juda katta hajmda         |
| Dinamik muhitga moslashish             | Past                   | Yuqori                    |
| Mijoz xulq-atvorini tahlil qilish      | Cheklangan             | Keng qamrovli             |

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, sun‘iy intellekt asosidagi scoring modellari kredit riskini aniqlashda an‘anaviy modellarga nisbatan taxminan 20–30 foiz yuqori aniqlikni ta‘minlaydi. Bundan tashqari, ushbu modellar real vaqt rejimida ishlash imkoniyatiga ega bo‘lib, banklarga tezkor va asoslangan qarorlar qabul qilish imkonini yaratadi. Bu esa kredit portfeli sifatini yaxshilashga va muammoli kreditlar ulushini kamaytirishga xizmat qiladi.

Shuningdek, tijorat banklarida scoring modellari samaradorligini yanada oshirish uchun bir qator muhim yo‘nalishlar alohida ahamiyatga ega. Birinchidan, ma‘lumotlar bazasini kengaytirish va ularning sifatini oshirish zarur, chunki modelning aniqligi bevosita kiruvchi ma‘lumotlarning to‘liqligi va ishonchliligiga bog‘liqdir. Ikkinchidan, scoring modellarini iqtisodiy sharoitlarning o‘zgarishiga mos ravishda doimiy yangilab borish, ya‘ni algoritmlarni optimallashtirish va qayta o‘qitish (re-training) jarayonlarini muntazam amalga oshirish lozim. Uchinchidan, bank tizimiga sun‘iy intellekt texnologiyalarini keng joriy etish orqali kredit risklarini prognoz qilish aniqligini yanada oshirish mumkin. To‘rtinchidan esa, integratsiyalashgan risk boshqaruv tizimini shakllantirish, ya‘ni scoring modellarini kredit, bozor va operatsion risklarni boshqarish tizimlari bilan uyg‘unlashtirish bank faoliyatining umumiy barqarorligini ta‘minlaydi.

Natijada, zamonaviy scoring modellari nafaqat kredit risklarini kamaytirishga xizmat qiladi, balki banklarning moliyaviy barqarorligini mustahkamlash, rentabellikni oshirish hamda kredit portfelini samarali boshqarish imkoniyatlarini kengaytiradi. Shu bilan birga, raqamli transformatsiya jarayonlari sharoitida ushbu modellar banklarning raqobatbardoshligini oshirishda ham muhim strategik omil bo‘lib xizmat qiladi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, tijorat banklarida kredit risklarini baholash jarayonida zamonaviy scoring modellari strategik ahamiyatga ega bo‘lib, ular banklarning kredit portfeli sifatini yaxshilash va potensial yo‘qotishlarni oldindan aniqlash imkonini beradi. Ayniqsa, an‘anaviy statistik yondashuvlar bilan bir qatorda sun‘iy intellekt, mashinaviy o‘rganish (machine learning) va katta ma‘lumotlar (big data) texnologiyalariga asoslangan modellarning joriy etilishi kredit risklarini aniqlash aniqligini sezilarli darajada oshiradi hamda qaror qabul qilish jarayonini avtomatlashtirishga xizmat qiladi. Bu esa bank xodimlarining subyektiv baholashga asoslangan xatoliklarini kamaytirib, kredit ajratish jarayonini yanada shaffof va samarali qiladi. Shuningdek, scoring tizimlarining samaradorligini oshirish uchun bir qator muhim yo‘nalishlarga alohida e‘tibor qaratish zarur. Jumladan, mijozlar to‘g‘risidagi ma‘lumotlar bazasining to‘liqligi, ishonchliligi va yangiligi muhim omil bo‘lib, noto‘g‘ri yoki yetarli darajada shakllanmagan ma‘lumotlar model natijalarining aniqligiga salbiy ta‘sir ko‘rsatishi mumkin. Bundan tashqari, zamonaviy raqamli texnologiyalarni keng joriy etish, algoritmik modellarni doimiy ravishda takomillashtirib borish hamda iqtisodiy muhitdagi o‘zgarishlarga moslashtirish scoring tizimlarining barqaror ishlashini ta‘minlaydi. Xalqaro tajribani o‘rganish, xususan Basel standartlari va ilg‘or xorijiy bank amaliyotlarini milliy bank tizimiga integratsiya qilish ham kredit risklarini boshqarish samaradorligini oshirishda muhim o‘rin tutadi.

Kelgusida ushbu yo‘nalishda olib boriladigan ilmiy tadqiqotlar bank tizimining moliyaviy barqarorligini mustahkamlash, kredit risklarini prognoz qilish aniqligini yanada oshirish hamda

raqamli bank xizmatlarining rivojlanishiga zamin yaratadi. Shu bilan birga, sun'iy intellekt asosidagi yangi avlod scoring modellari joriy etilishi banklarning raqobatbardoshligini oshirib, kredit portfeli sifatini optimallashtirishga xizmat qiladi va umuman olganda, milliy bank tizimining xalqaro moliyaviy bozorlardagi o'rnini mustahkamlashga yordam beradi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Altman E.I. Financial Ratios, Discriminant Analysis and the Prediction of Corporate Bankruptcy. – New York: Journal of Finance, 1968. – p. 589–609.
2. Anderson R. Credit Scoring and Its Applications. – Philadelphia: SIAM, 2007. – 350 p.
3. Lavrushin O.I. Bankovskoye delo. – Moskva: KNORUS, 2016. – 400 s.
4. Xodiyev B.Yu. O'zbekiston iqtisodiyoti modernizatsiyasi. – Toshkent: Iqtisodiyot, 2018. – 250 b.
5. Basel Committee on Banking Supervision. International Convergence of Capital Measurement and Capital Standards. – Basel: BIS, 2006. – 300 p.

**УДК:330.322**

**ИНВЕСТИЦИЯ МУҲИТИ ВА ЎЗБЕКИСТОНДАГИ ИНВЕСТИЦИЯ  
ЖАРАЁНЛАРИНИНГ ДИНАМИКАСИ**

**ИНВЕСТИЦИОННЫЙ КЛИМАТ И ДИНАМИКА ИНВЕСТИЦИОННЫХ  
ПРОЦЕССОВ В УЗБЕКИСТАНЕ**

**INVESTMENT CLIMATE AND DYNAMICS OF INVESTMENT PROCESSES IN  
UZBEKISTAN**

**Бобоқулова Моҳина Ғофур қизи**

Мирзо Улуғбек номидаги Ўзбекистон миллий университети  
Иқтисодиёт факултети таянч докторанти

**Аннотация**

Ҳозирги иқтисодий шароитда инвестиция муҳити иқтисодий ўсишнинг асосий омилларидан бири ҳисобланади. Ушбу мақолада Ўзбекистонда инвестиция муҳитининг ҳозирги ҳолати ва инвестиция жараёнларининг динамикаси таҳлил қилинган. 2014–2025-йилларда асосий капиталга киритилган инвестициялар ҳажми ва уларнинг таркибий ўзгаришлари ўрганилган. Таҳлил натижалари асосида инвестиция муҳитини такомиллаштириш бўйича илмий асосланган таклиф ва тавсиялар ишлаб чиқилган.

**Калит сўзлар:** инвестиция муҳити, инвестиция динамикаси, тўғридан-тўғри хорижий инвестициялар, институционал муҳит, иқтисодий ислохотлар, инвестиция инфратузилмаси, саноат зоналари, иқтисодий ўсиш.

В условиях современного экономического развития инвестиционный климат является одним из ключевых факторов экономического роста. В статье проанализированы текущее состояние инвестиционного климата в Узбекистане и динамика инвестиционных процессов. Рассмотрены инвестиции в основной капитал за 2014–2025 годы и их структурные изменения. По результатам исследования разработаны предложения по совершенствованию инвестиционного климата и повышению его конкурентоспособности.

**Ключевые слова:** инвестиционный климат, динамика инвестиций, прямые иностранные инвестиции, институциональная среда, экономические реформы, инвестиционная инфраструктура, индустриальные зоны, экономический рост.